

## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA ONA TILINI O'RGAТИSHNING MAZMUNI VA VAZIFASI



### Abstract:

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlashini, ilmiy dunyoqarash va tafakkurini shakllantirish, dunyoqarash tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmuniining rivojlanib borishini belgilab beruvchi qarashlar va e'tiqodlar tizimi ekanligi, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirishda ona tilini o'rガтишning ahamiyati va dunyoqarashni shakllantirishda tarbyianing ahamiyati to'g'risida allomalarning fikrlari haqida bayon qilingan.

### Key words:

Ilmiy dunyoqarash, aqliy tarbiya, bilim, dunyoqarashning darajalari, milliy ong, mafkura, to'plagan hadislar, ilm-fan va ta'lif-tarbiya.

### Author of the article:

XURRAMOVA MADINA  
ABDUNAZAR QIZI

### Workspace (Education subject)

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA  
INSTITUTI 2-KURS TALABASI

KIRISH. Maktablarda ona tili o'rГатишning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning mакtab oldiga qo'yan vazifasiga moslangan. Bu vazifalar qo'p qirrali bo'lib, ularni bajarish o'quvchilar ongini o'stirishga, ularga g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo'naltirilgan. Ona tilini o'rГатиш natijasida o'quvchilarda o'z fikrini grammatick to'g'ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to'g'ri yoza olish ko'nikmalari shakllantiriladi. Bu vazifa o'quv predmeti sifatida o'zbek tilining o'ziga xos xususiyati bo'lib, o'quvchini shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan umumta'llim vazifalari bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR TAHЛИI VA METODOLOGIYA. Ona tili kursida beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi (fonetik va grafik); so'zlarning o'zgarishi va gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi (grammatick, ya'ni morfologik va sintaktik); so'zning morfemik tarkibi va so'z yasalish usullari haqidagi (so'z yasalishiga doir); so'zlarning leksik-semantik guruhi haqidagi (leksikologik); o'zbek tilining to'g'ri yozuv tamoyillari va tinish belgilarining ishlatalishi haqidagi (orfografik va punktuatsion) bilimlar tashkil etadi. Bu bilimlar, birinchidan, grammatick, fonetik, so'z yasalishiga oid tushunchalarda, ikkinchidan, grafik, orfografik, punktuatsion qoidalarda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, o'zbek tili kursi fonetik, gra-fik, morfologik, sintaktik va boshqa ko'nikma va malakalarni ham o'z ichiga oladi. Tilni o'rganish jarayonida o'quvchilarda boshqa ko'pgina o'quv predmetlari uchun umumiyl bo'lgan ko'nikmalar (predmetlararo ko'nikmalar)ni hosil qilish ustida ham ish olib boriladi. Pedagogikada bunday predmetlararo ko'nikmalarga analiz, sintez, abstraktlashtirish (til hodisalarini fikran tasavvur etish), umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash kabilar kiradi. Ushbu ko'nikmalarni o'quvchilarda shakllantirish ustida maqsadga muvofiq ishlash ularning o'quv faoliyatini faollashtirishga, bilimlarini muvaffaqiyatl egallashlariga imkoniyat yaratadi. Ona tili kursidan hosil qilinadigan maxsus ko'nik-malar bilan predmetlararo ko'nikmalar, bir-biridan ajratilmagan holda o'quv-tarbiyaviy jarayonda shakllantiriladi. Beriladigan bilim va o'quvchilarda hosil qilinadigan maxsus ko'nikmalar mакtab dasturlari va davlat ta'lif standartida qayd etilgan. Boshlang'ich sinflarda o'rganish uchun tilni ongli egallashga va o'quvchilarda grafik va imloviy malakalarni shakllantirishga zamin bo'ladi bilimlar tanlangan. Fonetika va grafika sohasida .

# *«Development of science» international conference*

o'quvchilar so'zning o'quvchilarga ta'limgartarbiya berish vazifalaridan biri ularda ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirishdir. Bu vazifani hal qilishda maqsadga muvofiq ishlashning yetakchi sharti — o'quvchini Shaxs sifatida muvaffaqiyatlari kamol toptirishdir. Quyida ko'rsatilgan omillar tilni o'rgatish bilan bog'liq holda o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirish usulini belgilaydi: tilning ijtimoiy hodisa sifatidagi mohiyati uning aloqa (kommunikativ) vazifasini ifodalashdan iboratdir. Maktabda, shu jumladan, boshlang'ich sinflarda tilni o'rgatishning yetakchi yo'naliishi o'quvchilar tomonidan tilning aloqa vazifasini bajarishini tushunishlariga erishish hisoblanadi; til bilan tafakkur uzviy bog'liq bo'lib, tafakkur so'z vositasida yuzaga chiqadi. Til tafakkurning mahsuli hisoblanib, ongdan tashqarida o'zicha yashamaydi; til va tafakkur atrofimizni o'rab olgan moddiy borliqqa nisbatan ikkilamchidir. Tafakkur tashqi dunyoning tushunchadagi ifodasi hisoblanadi. So'z tushunchaning shartli nomini o'zida aks ettiradi. Dunyoda yo'q narsa ongda ham, tilda ham bo'lmaydi. Bu holat o'quvchilarda dunyoqarashni shakllantirish asosini tashkil etadi va didaktik tamoyillardan birini, ya'ni til atrofni o'rab olgan muhitni, vogelikni kuzatish jarayonida faol bilish faoliyatini vaziyatida o'rganilishini belgilaydi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shunday qilib, tilning har bir jihatining o'ziga xos xususiyatini ko'rib chiqishning o'zi ularning o'zaro munosabatini, bir-biriga o'tishining murakkabligini ta'kidlaydi. Tilshunoslik fani bo'limlari o'rtasidagi munosabatlar ham shunga o'xhash murakkabdir. Fonetika, leksikologiya bilan ham, grammatika bilan ham bog'lanadi. Tovushlar, fonemalartarkibida yashaydi. Fonetikaning sintaksis bilan bog'lanishi, xususan, har bir gapda ma'lum ohangda bo'lishida ko'rindi. Grammatik va semantik jihatdan bog'langan so'zlar majmuasi ma'lum ohangga ega bo'lsagina gap hisoblanadi. Bunda gapning mazmuni so'zlovchining gapda ifodalangan ohangiga bog'liq bo'ladi. Shunday qilib, ohang gapda so'z tartibi, yordamchi so'zlardan foydalanish, so'z o'zgartishlar bilan birga gap tuzish usullaridan biri sifatida xizmat qiladi. Leksikologiya so'z yasalishi bilan jips bog'lanadi: birinchidan, tilning lug'at tarkibi, asosan, tilda mavjud bo'lgan so'zlardan yangi so'zlar yasalishi hisobiga to'ldirilib, boyib boradi; ikkinchidan, yasalgan so'zlarning leksik ma'nosi yasama negizning moddiy ma'nosiga asoslanadi. Morfologiya leksikologiya va so'z yasalishi bilan jips bog'langan. Morfologiya, asosan, so'zning grammatik xususiyatlarini o'rganadi. So'zning gram matik ma'nosi doimo leksik ma'nosi bilan birga namoyon bo'ladi, har bir so'z, bir tomonidan, shu so'zga tegishli bo'lgan ma'lum o'ziga xos leksik-grammatik guruhning belgilarini bildiradi, ikkinchi tomonidan, u s o'zning o'z leksik ma'nosi bo'ladi. So'zdagi mana shu um umiy birlik morfologiyada, leksikadan ajralmagan holda, leksika zaminida o'rganiladi. So'z uchun muqarrar morfemik tarkibi xarakterli bo'lib, bunga so'zning leksik ma'nosi va qator grammatik belgilari bog'liq bo'ladi. Yangi so'z qaysi usul bilan vasalmasin, doim grammatik shakllanadi va o'zining leksik ma'nosiga ega bo'ladi. Har bir so'z turkumida bo'g'inlar tilda alohida emas, balki ma'lum leksik ma'no bildiradigan so'z so'z yasalishining xarakterli xususiyatlari mavjud. So'zning morfemik tarkibi va yangi so'z yasalish usullari tilshunoslik fanining so'z yasalishi bo'limida, grammatika va leksikologiyadan ajratilmagan holda o'rganiladi.

Morfologiya va sintaksis har tomonlama o'zaro bog'lanadi. Morfologiya, asosan, so'zlarning gram matik ma'nosi va uni ifodalash shakllari o'rganiladi; sintaksisda so'zlarni o'zaro bog'lanib so'z birikmasi va gap hosil qilish usullari, shuningdek, gap turlari, ularning mazmuni va ishlatalishi o'rganiladi. So'z morfologiyada ham, sintaksisda ham o'rganiladi, am m o o'rganish obyekti har xil bo'ladi. Sintaksisning o'rganish obyekti gapdir; unda so'z gap

yoki so'z birikmasida boshqa so'zlar bilan ma'no va grammatic jihatdan bog'llangan holda o'rganiladi. Morfologiyada so'z gapdan tashqarida ham o'rganilishi mumkin; so'zga muayyan leksik-grammatik guruhga kiradigan so'zlar bilan o'zaro munosabati nuqtai nazaridan qaraladi. Morfologiya va sintaksisda so'zga bunday har xil yondashish ularning bir-biriga bog'lqligini inkor etmaydi, aksincha, ular so'z va gapning o'zida yashaydi. So'zlar so'z o'zgarish tizimiga ega bo'lgani tufayli gapiar aloqa vazifasini bajaradi. Shakl yasalishi va so'z yasalishi m orfologiyada o'rganiladi, ammo gapda tatbiq etiladi, so'zlarning o'zaro bog'lanish qoidalarini o'rganish esa sintaksis sohasiga taalluqlidir. So'z birikmasi tarkibidagi so'zlarning o'zaro bog'lanish usulini aniqlashda shu so'z birikmasiga kirgan so'z turkumining morfologik xususiyatlari hisobga olinadi. Bular morfologiya va sintaksisda bir-biri bilan bog'lq holda o'rganiladigan til hodisalarining ayrimlaridir. Bu aniq misollar morfologiya va sintaksis bir-birini taqozo qilsa ham, grammatikaning mustaqil bo'limi ekanini ta'kidlash uchun yetarli.Keltirilgan fikrlar boshlang'ich sinf o'quvchilariga predmetlararo ichki bog' lanishni hisobga olgan holda ona tilini o'rgatish metodikasini belgilaydi:

1. Tilning barcha (leksik, fonetik, so'z yasash, grammatic) tomonlari o'zaro bog'lqligini va ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanini hisobga olib, o'quvchilar tilni ongli o'zlashtirishlari uchun tilning har bir tomoni xususiyatlarini va ular o'rtasidagi bog'lanishni o'zlashtirishlari zarur. 1-4-sinflarda ona tilini o'rganish tizimi fonetika, leksikologiya, so'z yasalishi va grammatikaning o'zaro bog' lanishi mohiyatini hisobga olgan holda tuziladi. Bu hol dastur materiallarini o'rganish tartibini belgilashda ham, ta'lim mazmunini (dastur bo'limlari o'rtasidagi uzviy bog' lanishni) aniqlashda ham hisobga olinadi.

2. Tilning barcha jihatlarining bir-biriga ta'siri uning aloqa quroli vazifasida namoyon bo'ladi. Tilning asosiy birligi sifatida aloqa maqsadida so'zni to'g'ri talaffuz qilish yoki yozish, shu tilda so'zlashuvchi barcha kishilarga bir xilda tushunarli bo'lishi, gapda grammatic jih atdan to'g'ri tuzilishi kerak.

**XULOSA.** Shularni hisobga olib, kichik yoshdagi o'quvchilar tilning talaffuzi, grafik, leksik, so'z yasalishi va grammatic tomonlarining o'zaro bog'lanishi mohiyatini tushunishlari uchun dastur materialini o'rganishda tilning aloqa vazifasi yetakchi ekanı nazarda tutiladi, ya'nı kishilar bilan aloqa jarayonida tilning barcha tomonlari birgalikda foydalaniishi hisobga olinadi. Shu maqsadda tilning fonetik tomonini o'rganishda so'zning ma'no va talaffuz jihatdan birlik hosil qilishini, tovushning so'z ma'nosini farqlashdagi o'rnnini tushuntirishga katta ahamiyat qaratiladi.

Maktabda tilning barcha tomonlarini bir-biri bilan bog'lq holda o'rganish ona tilini o'rgatishning yetakchi metodik tamoyili hisoblanadi. Buni amalga oshirish til o'suvchan, bir-biriga o'zaro ta'sir etadigan tomonlari mayjud bo'lgan murakkab hodisa ekanini tushuntirishda doimiy asos hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jo'rayeva N. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasining dolzarb masalalari. Scientific Journal Impact Factor, 2(9). 2021.
2. Yunusova D. Working on reading consciousness in elementary classes. Scientific Journal Impact Factor, 2(9). 2021.
3. G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. - T.: O'qituvchi, 1992.
4. Yo'doshev J.G ',Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. - T.: O'qituvchi, 2004.